ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

SOLIQ AKTIVLARI (MAJBURIYATLARI)NI MOLIYAVIY HISOBOTLARDA AKS ETTIRILISHI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Yakubov Ulugbek Kasimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy tahlil” kafedrasi professori, DSc.
Abdullayev Abror Bozarboyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy tahlil” kafedrasi dotsenti, PhD.
Pardayev Fayzulla Gaffarovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Moliyaviy tahlil” kafedrasi katta o‘qituvchisi

ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ УЧЁТА И АНАЛИЗА НАЛОГОВЫХ АКТИВОВ (ОБЯЗАТЕЛЬСТВ) В ФИНАНСОВОЙ ОТЧЁТНОСТИ.

Якубов Улугбек Касимович
Ташкентский государственный экономический университет
Профессор кафедры «Финансовый анализ»
доктор экономических наук, профессор
Абдуллаев Аброр Бозарбоевич
Ташкентский государственный экономический университет
Доцент кафедры «Финансовый анализ», к.э.н.
Пардаев Файзулла Гаффарович
Ташкентский государственный экономический университет
Старший преподаватель кафедры «Финансовый анализ»

ELABORATION ISSUES OF THE REFLECTION AND ANALYSIS OF TAX ASSETS (LIABILITIES) IN FINANCIAL STATEMENTS.

Yakubov Ulugbek Kasimovich
Tashkent State Economic University
Professor of the Department of Financial Analysis
Doctor of Economic Sciences, Professor
Abdullaev Abror Bozarboevich
Tashkent State Economic University
Associate Professor of the Department of Financial Analysis, Ph.D.
Pardaev Fayzulla Gaffarovich
Tashkent State Economic University
Senior Lecturer at the Department of Financial Analysis

Annotatsiya. Mazkur maqolada xo’jalik yurituvchi subyektlarda soliqlanish jarayonida vujudga keladigan hamda moliyaviy hisobotda soliq aktivlari va majburiyatlari moddalari bilan aks ettiriladigan elementlarning buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy tahlili masalalari atroflicha ochib berilgan. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini amaliyotga joriy etish sharoitida ko‘plab

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

yangi iqtisodiy atamalar yuzaga chiqayotganligi, ularni milliy hisob tizimida huquqiy jihatdan yetarlicha ochib berilmaganligi muammosidan kelib chiqib, soliq aktivlari va majburiyatlar masalasi tadqiq etilgan. Shuningdek, mazkur elementlarni buxgalteriya hisobi va hisobotlarida aks ettirilishi moliyaviy tahlilda ham ma'lum yondoshuvlarni talab etadi. Xususan, xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatda yuzaga keladigan soliq aktivlari va soliq majburiyatlari yuzasidan mualliflarning qarashlari va takliflari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: soliq aktivi, soliq majburiyati, tushum, moliyaviy hisobot, moliyaviy tahlil.

Аннотация. В статье подробно изложены принципы бухгалтерского учёта и финансового анализа элементов, которые возникают в процессе налогообложения хозяйствующих субъектов и отражаются в финансовой отчётности как налоговые активы и обязательства. Вопрос налоговых активов и обязательств изучался в свете того, что в условиях внедрения международных стандартов бухгалтерского учёта появляется много новых экономических терминов и их недостаточного правового раскрытия в национальной системе бухгалтерского учёта. Также отражение этих элементов в учёте и отчётности требует определённых подходов в финансовом анализе. В частности, представлены взгляды и предложения авторов относительно налоговых активов и налоговых обязательств, возникающих в деятельности хозяйствующего субъекта.

Ключевые слова: налоговый актив, налоговое обязательство, выручка, финансовая отчетность, финансовый анализ.

Abstract. This article discusses in detail the issues of accounting and financial analysis of elements that arise in the process of taxation in business entities and reflect in the financial statements by tax assets and liabilities. Because of the given the fact that many new economic terms are emerging in the context of the implementation of international accounting standards and their insufficient legal disclosure in the national accounting system, the issue of tax assets and liabilities is studied. Also, the reflection of these elements in accounting and reporting requires certain approaches in financial analysis. In particular, the authors' views and proposals on tax assets and tax liabilities arising in the activities of a business entity are outlined.

Keywords: tax asset, tax liability, revenue, financial statement, financial analysis.

Kirish.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti a'zoligiga erishishi bo'yicha amaliy choralar ko'rilmoqda. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiyotga integratsiyalashuvida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shu sababdan, mamlakatda qulay biznes muhitini yaratish maqsadida ko'plab sohalar kabi soliq, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit sohalarida ham keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasidan kelib chiqib, murakkab geosiyosiy va tashqi iqtisodiy vaziyatlarga qaramasdan mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanmoqda. Statistik tahlil va prognozlarga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyoti 2024-2025-yillarda 6 foizga hamda 2026–2027-yillarda mos ravishda 6,1 foiz va 6,3 foizga o'sishi prognoz qilingan. Tahlil natijalariga binoan, 2024-yilda makroiqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror bo'lib, iqtisodiy o'sish sura'ti asosan ishlab chiqarish va investitsiya faolligi hisobiga qo'llab-quvvatlangan [7].

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq 2022-yilning 22-noyabridan bir qancha buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari amaliyotga joriy etildi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining tegishli buyruqlari bilan 21-son BHMS “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma”, 9-son BHMS “Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot” va boshqa bir qator buxgalteriya hisoboning milliy standartlari zamonaviy talablar asosida qayta tasdiqlandi. Navbatdagi vazifa, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o‘ziga hos jihatlarini o‘zlashtirish hamda ular asosida iqtisodiy tahlil va auditni yo‘lga qo’yish muhim masalalardan sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

“Moliyaviy hisobotni taqdim etish” nomli 1-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standartida: - “Agar tashkilot moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotida joriy va uzoq muddatli aktivlarni hamda joriy va uzoq muddatli majburiyatlarni alohida sinflar tarzida taqdim etsa, u kechiktirilgan soliq aktivlarini (majburiyatlarini) joriy aktivlar (majburiyatlar) sifatida tasniflamasligi lozim”ligi ta’kidlangan [8].

Buxgalteriya hisobining 12-sonli “Foyda soliqlari” nomli xalqaro standartida foydalanilmagan soliq zararlaridan yoki foydalanilmagan soliq imtiyozlaridan kelib chiqadigan kechiktirilgan soliq aktivlarini tan olish, foyda soliqlarini moliyaviy hisobotda aks ettirish va foyda soliqlariga tegishli ma’lumotlarni yoritib berish belgilangan [9].

S.Tashnazarov soliq majburiyati bo‘yicha quyidagi fikrni bildirgan: “standartlarda va iqtisodiy adabiyotlarda soliqlar bo‘yicha muddati uzaytirilgan majburiyatlarni e’tirof etish bo‘yicha ham tortishuvga sabab bo‘luvchi mavzular mavjud. 21-son buxgalteriya hisobi milliy standartida muddati uzaytirilgan majburiyatlarga hukumat qarorlari bilan amaldagi qonunchilik asosida korxonaning soliqlar va majburiy to‘lovlari muddati uzaytirilgan majburiyatlarga kiritilgan” [12].

Averchev I. V. – soliqqa tortish jarayonida yuzaga kelgan aktivlar va majburiyatlar deb, e’tirof etgan [6].

Mavzu doirasida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, monografik kuzatuv, statistika, iqtisodiy - biznes tahlil, katta sonlar tahlili, ma’lumotlar tadqiqoti metodlaridan foydalanilgan holda xo‘jalik yurituvchi subyektlarda soliq aktivlari (soliq majburiyatlari)ni moliyaviy hisobotlarda aks ettirilishi va moliyaviy tahlilidagi munozarali holatlariga baho berilgan.

Natijalar.

Moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarini faoliyat barqarorligi va rentabelligi, resurslarning taqsimlanishi kabi ma’lumotlar bilan ta‘minlaydi. Ular asosda, xo‘jalik yurituvchi subyektining moliyaviy ahvoli, uning hisobot davridagi faoliyatining natijasi tahlil etiladi, moliyaviy holatiga baho beriladi.

2022-yil ikkinchi yarim yilligidan boshlab Xalqaro valyuta jamg’armasining texnik ko‘magida ishlab chiqilgan metodologiyaga muvofiq, yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy holati baholab borilmoqda. Xususan, 2023-yil yakuni bo‘yicha 27 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning jami aktivlari 2022-yilga nisbatan 16 foizga ko‘payib, 625 trln so‘mni tashkil qilgan. Majburiyatlari esa, 17,5 foizga oshib, 2023-yil yakunida 336,3 trln so‘mni tashkil etgan. 2023-yilda ushbu korxonalarning sof foydasi 35,5 foizga oshgan va 32 trln so‘mga yetgan. Davlat ishtirokidagi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

korxonalarning jami tashqi qarzi 2,3 foizga kamayib, 12,7 mlrd AQSH dollarni tashkil etgan [7].

Moliyaviy holatga likvidlilik, to‘lovga qobiliyati, daromadlilik ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib fiskal xatar darajasi aniqlangan.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini baholashda bir qancha ko‘rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Xususan, aktivlar, ishlab chiqarish zaxiralari va ularni moliyalashtirish manbalarining holatini baholash asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligi tahlil etiladi (1-jadval).

1-jadval.

“O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisoboti asosida aktivlari va manbalarini holatini tahlili [15].

(ming so‘m hisobida)

Aktiv	**2023 yil**	**Korrektirovka bo‘yicha**	**Passiv**	**2023 yil**	**Korrektirovka bo‘yicha**
1. O‘ta tez pulga aylanuvch aktivlar (A1)	57374	***15383***	1. Muddati etib kelgan majburiyatlar (P1)	410523	***297453***
2. Tez pulga aylanuvchi aktivlar (A2)	1448649	***1328537***	2. Joriy kredit va qarzlar (P2)	615147	615147
3. Sekin pulga aylanuvchi aktivlar (A3)	158585	158585	3. Uzoq muddatli majburiyatlar (P3)	3605689	***3556656***
4. Qiyin pulga aylanuvchi aktivlar (A4)	10620418	10620418	4. Doimiy passivlar (P4)	7653667	7653667
JAMI AKTIVLAR	**12285026**	**12122923**	**JAMI PASSIVLAR**	**12285026**	**12122923**

Tahlil jadvaliga binoan, “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotida 2023-yilda 120112 (60566+59546) ming so‘mga teng tez pulga aylanuvchi aktivlar mavjud. Shuningdaek, soliqdan to‘lanishi kerak bo‘lgan 113070 (52060+61010) ming so‘mga teng muddati etib kelgan qarzlari bor.

“O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotida 2023-yilda 49033 ming so‘mga teng uzoq muddatli soliq majburiyati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga binoan, soliq to‘lovchilar arizasi bilan ortiqcha to‘langan foyda solig‘i hisobga olinishi va qaytarilishi belgilangan [1]. Amaldagi Soliq kodeksi bandi ijrosi hisobiga “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatini konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotida aktivlar qiymati 12285026 ming so‘mdan 12122923 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lardi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Tahlil natijalariga ko‘ra, aktivlar tarkibidagi 120112 ming so‘m budjetdan olinadigan, 113070 ming so‘mga teng soliq majburiyati bor. Buxgalteriya hisobining 12-sonli “Foyda soliqlari” nomli xalqaro standartida: - “Joriy va o‘tgan davrlar uchun joriy soliqning to‘lanmagan qismi majburiyat sifatida tan olinishi, to‘langan soliq summasi ushbu davrlarda to‘lanishi kerak bo‘lgan soliq summasidan ko‘p bo‘lsa, oshgan summa aktiv sifatida tan olinishi belgilangan”. Moliyaviy hisobot ma’lumotiga binoan, oldindan to‘lov va soliq majburiyati o‘rtasida 7042 (120112-113070) farq mavjud. Mazkur farq va 57374 ming so‘m pul mablag‘laridan 41991 (49033-7042) ming so‘mni soliq majburiyatlarini qoplashga yo‘naltirish maqsadga muofiq. Natijada aktivlarda 12122923 qiymatga erishilgan va bu moliyaviy hisobotda aks ettirilganidan 162103 (12122923-12285026) ming so’mga farqlanadi.

Moliyaviy tahlilda soliq aktivlari va majburiyatlari hisobiga tez pulga aylanuvchi aktivlar, qiyin sotiluvchi mablag‘lardagi, shuningdek uzoq muddatli majburiyatlarida o‘zgarishlar, qabul qilinayotgan xulosada nisbatdan noaniqliklarni yuzaga keltradi deb hisoblaymiz.

Muhokama.

Kechiktirilgan soliq majburiyatlari soliq solinadigan vaqtinchalik farqlar bo‘yicha kelgusi davrlarda to‘lanadigan foyda soliqlari summasidir. Kechiktirilgan soliq aktivlari esa foyda soliqlarining kelgusi davrlarda qoplanadigan summasi bo‘lib, kelgusi davrlarga o‘tkazilgan foydalanilmagan soliq zararlari, imtiyozlari asosida shakllanadi. Vaqtinchalik farqlar moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda aks ettirilgan aktivning yoki majburiyatning balans qiymati va uning soliq bazasi o‘rtasidagi farqlardir.

Kechiktirilgan soliq aktivlari va soliq solinadigan vaqtinchalik farqlar xo‘jalik yurituvchi subyekt tomonidan kelgusida soliqqa tortiladigan foyda olishi mumkin bo‘lgandagina yuzaga keladi. Qayd etish kerakki, soliq aktivlari xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘ziga xos mulki sanaladi. Jumladan, soliq aktivlarini sotish, boshqa mablag‘larga almashtirish yoki biznes subyekti majburiyatlarini qoplash mumkin emas. Shu sababdan, xo‘jalik yurituvchi subyekt soliq aktivlaridan faqatgina soliq to‘lovidan ma’lum mablag‘ni iqtisod qilinishi bilan naf oladi.

12-sonli “Foyda soliqlari” nomli buxgalteriya hisobining xalqaro standartida xo‘jalik yurituvchi subyekti soliq oqibatlarini qanday hisobga olgan bo‘lsa, shu tarzda buxgalteriya hisobi va hisobotida tan olinishni talab qiladi. Shuning uchun, foyda yoki zarar tarkibida tan olingan muomalalar moliyaviy natijalar tarkibida tan olinadi. Shu sababdan, boshqa umumlashgan daromadda yoki bevosita xususiy kapitalda tan olingan muomalalar foyda va zararlar tarkibida tan olinmaydi.

Xulosa.

Kechiktirilgan soliq majburiyatlari va soliq aktivlari uzoq muddatli balans ko‘rsatkichlarida jamlanadi. Chunki, ularni xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qachon to‘lanishi yoki olinishi ma’lum bo‘lmaydi.

Bizningcha, sotilgan mahsulot (ish, xizmat)lar qaytarilishi hisobiga soliqqa tortiladigan bazaning o‘zgarishi yuzaga keladi. Buxgalteriya hisobining 12-sonli “Foyda soliqlari” nomli xalqaro standartida “Soliq maqomidagi o‘zgarish xo‘jalik yurituvchi subyekt uchun soliq aktivlari yoki soliq majburiyatlarining ko‘payishi, shuningdek kamayishi kabi oqibatlarni keltirib chiqaradi. Shunday ekan, qaytarilgan mahsulot (ish, xizmat)lar hisobiga yuzaga kelgan soliq aktivlari (soliq passivlari) moliyaviy holat (buxgalteriya balansida) to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladi.

Nazariy jihatdan qaralganda soliq aktivlari erishilmagan foyda uchun byudjetdan qaytariladigan, soliq passivlari byudjetga qo‘shimcha aniqlangan daromaddan o‘tkaziladigan ajratma hisoblanadi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-3

Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot(buxgalteriya badansi)da aks ettirilgan soliq aktivlari (soliq majburiyatlari) xo‘jalik yurituvchi subyekt mulki sifatida tan olinadi. Biroq, bu qiymatning xo‘jalik yurituvchi subyektning haqiqiy mulki deb tan olinishi bizningcha munozarali sanaladi. Shu sababdan, xo‘jalik yurituvchi subyektning aktivlarini likvidligi, to‘lov qobiliyati, moliyaviy holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni aniqlanishi, vertikal va gorizontal tahlili bo‘yicha qabul qilingan qarorlarni yetarlicha samarali deb bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 01.01.2020 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-sonli ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, (*https://lex.uz/ru/docs/-6600413*).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil, 13-aprel, O‘RQ-404-son (https://lex.uz/acts/-2931253).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori (https://lex.uz/docs/-4746047).
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 507-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi Qarori (https://lex.uz/ru/docs/-4966554).
6. Аверчев И. В. МСФО-2012. Комментарии и практика применения. Приложение к журналу “Бухгалтерский учет”.– № 11.– 2012.– М.: Редакция журнала “Бухгалтерский учет”, 2012.– Ч. 1. 552 с.
7. Budjetnoma 2025-2027. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi.
8. Buxgalteriya hisobining 1-sonli “Moliyaviy hisobotni taqdim etish” xalqaro standarti.
9. Buxgalteriya hisobining 12-sonli “Foyda soliqlari” xalqaro standarti.
10. Moliyaviy hisobotning 15-sonli “Xaridorlar bilan shartnomalar bo‘yicha tushum” nomli xalqaro standarti
11. Tashnazarov S.N. (2021) Majburiyatlarni hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish. “Ekonomikaisotsium” №5(84).
12. Yakubov U.K., Makhkamjonova K.B., Abdukarimov K.B. *Biznes Tahlilda Raqamli Texnologiyalar Tizimini Ta’minlovchi Komponentlar*. 2024
13. Yakubov U.K, Makhkamjonova K.B. *Issues of protection from economic risks by organizing accounting of foregn economic activity of an economic entity on the basis of international standards*. 2023.
14. Yakubov U.K. *Xo‘jalik yurituvchi subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini tahlili*. Наука и инновационные идеи в мире, 2024.
15. *https://openinfo.uz/ru/media/audit_conclusion/FS_UHE_FY2023_ru_press.pdf*